

AHMAD DONISHNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI TAHLILI.**Saloxov Akmal Qamariddinovich**

dotsent, Buxoro muhandislik-texnologiya institute.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15312491>

Annatsiya. Ushbu maqolada Yoshlar tolerantligini shakllantirishda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarni amalga oshirish jarayonida Ahmad Donish g'oyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, taraqqiyot strategiyasi, xalqparvar davlat, kechirimlilik, sabr-toqat, jadidchilik.

**МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЗОВАНИЯ ИДЕЙ АХМАДА ДОНИША
В РЕАЛИЗАЦИИ ЗАДАЧ, ОПРЕДЕЛЕННЫХ В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

Аннотация. В данной статье анализируются теоретико-методологические аспекты использования идей Ахмада Дониша в процессе реализации целей, указанных в стратегии развития Нового Узбекистана по формированию толерантности молодежи.

Ключевые слова: толерантность, стратегия развития, дружественное к людям государство, прощение, терпение, джадид.

**METHODOLOGICAL BASES FOR USING THE IDEAS OF AHMAD DONISH IN THE
IMPLEMENTATION OF THE TASKS DEFINED IN THE DEVELOPMENT
STRATEGY OF THE NEW UZBEKISTAN**

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological aspects of using the ideas of Ahmad Donish in the process of implementing the goals specified in the development strategy of New Uzbekistan on the formation of youth tolerance.

Key words: tolerance, development strategy, people-friendly state, forgiveness, patience, jadid.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi bu – yosh avlodni har tomonlama dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lishi, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanganligidadir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta'kidlash lozim.

“O‘z zamonining ilg‘or namoyandalari bo‘lgan jadidlar g‘oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma‘rifat tarqatish, ta‘lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g‘oyasi bilan maydonga chiqdilar”. [1]

“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan maqsadlarida, Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorism va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, ya’ni xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashni nazarda tutadi. [2]

Hozirgi kunda dunyoning ayrim hududlarida tobora keskinlashib borayotgan siyosiy ziddiyatlar, ma‘naviy-mafkuraviy tahdidlar xavfi bizdan doimiy ogoh bo‘lishimizni talab etmoqda. Sh.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Biz avvalo tub negizida “O‘zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak” degan g‘oya mujassam bo‘lgan O‘zbekistonning tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo‘lini izchil davom ettirishimiz lozim. Shuningdek, hozirgi o‘ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo‘lgan tinch va osoyishta hayotni ko‘z qorachig‘idek saqlash, jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi”. [3]

Hozirgi kunda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan oliyjanob g‘oya asosida barpo etilmoqda. Prezidentimiz belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarni (100 maqsad) bajarish va hayotga tadbiq etish, yoshlarimizni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash ilf-fan oldidagi muhim mas’uliyatli vazifadir.

Ayniqsa, 70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomil-lashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash. [4]

74-maqсад: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash. Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.[5]

XIX asr oxiri XX boshlarida yashab ijod qilgan Ahmad Donish o'z ijodi bilan o'zbek va tojik madaniyatida munosib hissa qo'shganlar. "Navodir ul vaqoe" asarida uning jadidlik g'oyalari, zamonaviy fanlar doirasida bilimga ega ekanligi, insonlarning ilmga rag'batini, ilm sabab Buxoro ahlining hayot tarzini yangilash, diniy ta'limni qayta shakllantirish hamda ma'rifat tushunchasida o'z xalqining ijtimoiy hayotidagi asrlilik turg'unlikdan xalos bo'lishga undash g'oyalari yetakchilik qilgan.

Ahmad Donish "Navodir-ul-vaqoe" nomli asarni yozib, barcha muammolarni yechish yo'lida shu asarini asosiy qonun sifatida ko'rsatishga uringan. "Navodir-ul-vaqoe" Ahmad Donishning eng yirik asari bo'lib, unda mutafakkirning turli masalalar to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan. Donish ijodidagi ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi qoida-sharhlar ushbu kitobda o'z aksini topgan. Ahmad Donish "Navodir-ul-vaqoe"da goh hayotni kuylaydi, goh umidsizlik, darvishlik ohangida so'zlaydi.

Bag'rikenglik haqidagi g'oyani Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asarida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan. Asarning "Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatlilik qilish" haqidagi risolasi uchunchi faslida hukmdorlarning yurti idora qilish usullari, xalqparvar, bag'rikeng, adolatli bo'lishlari haqida gap boradi. "Podshoh sababsiz hech kimning diliga ozor beruvchi bo'lmasin. Chunki uni xalq o'z tinchligi va erkin yashashi uchun bu darajaga ko'targan.

Podshoh ularga ozor berar ekan ish teskariga aylanadi".[6] Albatta bu holda mamlakatda tinchlik, totuvlik bo'lmaydi, tinchlik va barqarorlik bo'lmagan joyda esa xalq faravon hayot kechira olmaydi. "Podshohlar yetimlarning otalaridir. Shunday bo'lgach, podshohlar yetimlarga o'z otalaridan ham ko'proq g'amxo'rlik qilishlari lozimdir; toki podshoh ota bilan faqir otaning farqi bo'lsin. Imkoniyat boricha ehson eshigini ochib tursin" [7] degan fikrlari amaldorlarni bag'rikeng, mehr-oqibatli, mehribon bo'lishga chorlaydi. Donish fikricha, davlat bir guruh kishilarga emas, balki xalq manfaatlari uchun xizmat qilishi kerak. Mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurdir. Davlatning vazifasi xalq mafaatini himoya qilishdir. Hukmdor mamlakatni idora qilishda atrofdagilari bilan maslahatlashib hal qilish kerak. Demak, odil hukmdor mamlakatni kengash bilan boshqarsa, jamiyatda tartib-intizom o'rnatilib, davlat taraqqiy qiladi.

"Inson nima uchun yaratilgan, yaratilgandan so'ng uning yaxshiligi nimada va u nimani xohlashi kerak?", - degan iboralar bilan Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" kitobining muqaddimasini boshlaydi.

Inson, uning umr mazmuni, uning olam va odamlarga munosabati barcha falsafiy qarashlarning diqqat markazida bo'lgan. "Har ishning haqiqatini inson ocha oladi. Inson tana va ruhdan iborat mavjudot bo'lib, uning tuganmas baxti ilm va ma'rifatdadir", [8] - degan fikrni bildirib o'tadi. Ahmad Donish odamlarga qarata o'z qarashlarini ta'kidlab yozadiki, agar uning erki o'zi qo'lida bo'lsa, qaram bo'lmasin, chunki ma'rifat ruhning xoxishi bo'lib, ilmsizlik va dangasizlik nafsning istagidir. Ruh quvvati yaxshilikka buyuruvchi va yomonlikdan saqlovchidir, nafs quvvati esa yomonlikka yurgizuvchi va yaxshilikdan qaytaruvchidir". [9]

Ahmad Donish ko'rsatib o'tadiki, ota-onalar farzandlarini komil inson qilib tarbiyalay bilsalar, taqdirilariga shukrona qiladilar, lekin ular farzandlariga ezgulikni va yaxshilikni ravo ko'rmasalar, o'z g'arazlariga botib qoladilar. Ahmad Donish bilim xususida ham to'xtalib, yo'lni yorituvchi mash'al, shu mash'alga ega bo'lmagan odam esa hayot yo'llarida albatta qoqiladi, o'z o'rnini topa olmaydi degan xulosasini beradi. Ahmad Donishning "Nodir voqealar" asari nafakat o'z davri, balki biz yashab turgan hozirgi kunda ham ma'nan komil insonlarni ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash borasida ham nodir ma'naviy meros hisoblanadi.

Ahmad Donishning farzandlariga bergan maslahatlari:

1. Sidqidildan o'king. Foydali ilmlarni egallang.
2. Insonlarga kerakli bo'ling, foydali kasb, hunar, mashg'ulot egasi bo'ling.
3. Jamiyat va oila manfaatlarini himoyachisi bo'ling.
4. Shukr va sabr qiluvchi bo'ling.
5. Kechirimli bo'ling.
6. Mustaqil fikrga ega bo'ling.
7. Ajdodlar merosini o'rganing.
8. E'tiqodli bo'ling.

Ahmad Donishning falsafiy asarlarida davlatni boshqarish haqidagi o'zining ijtimoiy falsafiy fikrlarini bayon etadi. Uning fikricha davlatni adolatli shaxslar boshqarsin va hukumat xazinasi hisobidan ularga haq berilsin. Ahmad Donish bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishlikni ta'kidlaydi. Jumladan, davlat boshqarishini yagona sulolaga boshqaruviga berib bo'lmaydi, degan xulosaga kelib, Ovroqpa davlatlaridagi parlament deb ataladigan davlat boshqaruvini tavsiya qiladi.

Mutafakkir fikricha, davlat boshqaruvining muhim vazifasi – o'z xalqi haqida g'amxo'rlik qilishlikdir. Amaldorlar davlat iqtisodiyotining taraqqiy qilishi uchun jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, jumladan, suv omborlarni qurish, ilm-fanni taraqqiy ettirish, xalqni ma'rifatli qilishga majburdilar, deb ko'rsatib o'tadi. Uning bu g'oyalari hozirgi kunda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas hamohangligini ko'rishimiz mumkin.

Ahmad Donish qo'shni mamlakatlarga qilgan safarlari vaqtida mahalliy aholi bilan bo'lgan suhbatlari va o'zaro muloqotlarida Buxoro amirligining yaxshi qo'shnichilik aloqalar yo'lga qo'yilmaganini ta'kidlab o'tadi. Uning falsafiy qarashlari muhim ijtimoiy-siyosiy va tabiiyaviy ahamiyatga molik. U yosh avlodni pok vijdonli, sabr-bardoshli, ma'rifatli, ilimli, halol, qilib tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish masalalarini ilgari surgan.

Ahmad Donish yoshlardan himmatli, jasoratli, ezgu niyatli, bo'lishni talab etadi, ularga barcha ishlarni bajarishga ongli ravishda kirishishni maslahat beradi.

Jumladan, himmat haqida fikr yuritir ekan, insonlarni biror mavjudotga ozor yetkazmaslikka, muruvvatli bo'lishga da'vat etadi, chunki har bir tanada hayot go'zalligi mujassamdir. Ahmad Donish bag'rikenglik g'oyalari haqida fikr yuritib, nafsga qul bo'lmaslikni ta'kidlab o'tadi.

"Navodir ul-vaqoe" asarida bag'rikenglikning asosiy va muhim jihatlarini ko'rsatib o'tadi:

- etnik tolerantlik – turli xalqlar qadriyatlarini, an'ana-larini hurmat qilish;
- dinlararo tolerantlik – turli diniy e'tiqod vakilla-rining murosa bilan yashashi;
- oiladagi tolerantlik – oila a'zolarining bir-biriga nisbatan mehribon, g'amxo'r bo'lishi.

Ahmad Donishning o'zi ham bu tamoyillarga amal qilar, hayot tarzini ilm olishga, o'z qarashlarini hayotga tadbiiq qilishga bag'ishlardi.

Xulosa. Ahmad Donishning bag'rikenglikka oid qarashlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Bag'rikenglik ruhida tarbiyalangan yoshlar yurt tinchligi, do'stlik va hamjihatligi, vatan ravnaqi, xalq faravonligi kabi xalqimizning ezgu maqsadlari yo'lida o'zlaring salohiyatlarini safarbar etishga intiladilar.

Shu nuqtai-nazardan yoshlarda bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish va yuksaltirishda Buxoro jadidlarning ilmiy merosini o'rganish va falsafiy tahlil etish bugungi globalashuv davrida muhim vazifalardan biri deb hisoblaymiz. Yoshlardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun avvalo ularning qalbida Vatanimizga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odatlarimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yosh avlodga bag'rikenglik g'oyalarini shakllantirish jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Demak, shunday ekan yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlarimizda bag'rikenglikni shakllantirishdagi tarixiy-falsafiy meros xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlari va bugungi kun nuqtai nazardan ma'naviy yuksalishini taqazo etmoqda.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoevning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilarigaso'zlagan nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6007>.
2. "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60- sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. –B. 18-19.
4. <https://lex.uz/docs/5841063>
5. <https://lex.uz/docs/5841063>
6. O'sarov F.X. XIX asr oxiri XX asr ma'rifatparvarlari hamda jadidlar ixodida tinchlik va bag'rikenglik falsafasi madaniyati. Buyuk allamalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari.T.:JIDU. 2005. –B. 59-64
7. Ahmad Donish. "Navodir ul-vaqoe"(Nodir voqealar). Toshkent. "Fan" nashriyoti.1964.-B. 63.
8. Ahmad Donish . "Navodir ul-vaqoe". Fan, T:, 1964. –B. 37.
9. Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe". Fan. T:, 1964. –B. 38
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent. O'zbekiston, 2021.-B. 199.
11. Decree No. PF-158 on the "Strategy of Uzbekistan - 2030". .2023.
12. Mirziyoyev Sh.M.. Strategy of the New Uzbekistan. - Tashkent. Uzbekistan. 2021.
13. Sultanova, L. (2021). The historical roots of spiritual education of youth. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 461-463.
14. Султонова, Л. С. (2023). ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИНГ УЗВИЙЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 633-639.
15. Sulstonova, L. (2023). Upbringing Mature Person. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(3), 71-73.
16. Султанова, Л. С. (2023). ТОЛЕРАНТНОСТЬ В ВОСПИТАНИИ ПОДРОСТОЯЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 557-564.
17. Султонова, Л. С. (2022). МЕСТО ИНЖЕНЕРНОЙ ПЕДАГОГИКИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(6), 29-34.
18. Sulstonova, L. S. D. (2023). МАФКУРАВИЙ ТАРБИЯНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАЛАРИ. *SCHOLAR*, 1(28), 79-96.

19. Султонова, ЛСД (2023). ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С МОЛОДЕЖЬЮ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. *Образовательные исследования в области универсальных наук*, 2 (8), 238-252.
20. Азимов, А. А. (2022). Философско-этические взгляды Закария ар Рази. *Актуальные исследования*, (20 (99)), 26-28.
21. Abdullaevich, A. A. (2024). ETHICAL AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN RUDAKIY'S HERITAGE. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(3), 36-52.
22. Азимов, А. А., & Хикматов, А. Д. (2024). ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО ВЕЛИКОГО ПОЭТА ГЛАЗАМИ СРЕДНЕАЗИАСКИХ УЧЁНЫХ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 366-375.
23. Азимов, А. А. (2023). ВЗГЛЯДЫ РУДАКИ О ВОСПИТАНИИ ЧЕЛОВЕКА. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 515-523.
24. Azimov, A. A. (2023). RUDAKI'S VIEWS ON LIFE IN THE POEM SINBADNAME. *SCHOLAR*, 1(28), 97-112.
25. Azimov, A. A. (2023). RUDAKI'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORKS. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 214-228.
26. Abdullayevich, A. A. (2023). SCIENCE, LITERATURE AND POETRY IN TRANSOXIANA AND KHORASAN IX-X CENTURIES. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 255.
27. Azimov, A. A., & Avliyokulov, U. M. (2019). СОЦИАЛЬНО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЭПОХИ АБУ АБДУЛЛАХ РУДАКИ. *Theoretical & Applied Science*, (5), 560-562.
28. Азимов, А. А., & Темиров, Ш. Т. (2016). КУЛЬТУРНАЯ И АРХИТЕКТУРНАЯ ВЗАИМОВЛИЯНИЯ ВОСТОКА И ВОСТОЧНОЙ ЕВРОПЫ С БУХАРОЙ. In *Современные тенденции развития науки и производства* (pp. 33-34).
29. Азимов, А. А. ўғли Рўзиев, АШ (2022, December). ОСОБЕННОСТИ КНИГИ АВЕСТА. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS* (Vol. 1, No. 7, pp. 37-42).
30. Salokhov, A. K. (2024). THE YOUNG PEOPLE ARE FORMED, THE ENLIGHTENED-INFORMATORS OF BUKHO USE YOUR IMAGINATION STYLE BASICS. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 3(4), 16-19.
31. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). Socio-philosophical and pedagogical basis of the concept of tolerance. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.
32. Salokhov, A., & Qamariddinova, G. A. (2023). Socio-philosophical and pedagogical basis of the concept of tolerance. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 200-213.

33. Saloxov, A. Q. (2024). Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda ahmad donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(3).
34. Мурадов, С. А. Современные методы философии и их значение в развитии мышления человека. *Актуальные исследования*, 51(17), 273-276.
35. Муродов, С. А. (2009). Ибн Сино, Аттот ва Навоий асарларида кушлар тимсоли. *Имом ал-Бухорий сабоқлари», Маънавий-маърифий, илмий-адабий журнал. Тошкент*, 273-276.
36. Мурадов, С. А. кизи Касимова, ФФ (2022, December). ФИЛОСОФИЯ ДИЗАЙНА: ОСОБЕННОСТИ И СУЩНОСТЬ. In *INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS* (Vol. 1, No. 7, pp. 51-59).
37. Санжар, М. (2020). Взгляды Фаридуддина Аттара на бытие. *Международный журнал прикладных исследований. ИДЖАР*, 6(6), 34-36.
38. МУРАДОВ, С. А. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАРИДУДДИНА АТТОРА. *МОЛОДОЙ УЧЕНЫЙ Учредители: ООО" Издательство Молодой ученый*, 51, 529-531.
39. Мурадов, С. А. (2023). ФАРИДУДДИН АТТОР-ВЕЛИКИЙ ШЕЙХ ВОСТОКА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 15, pp. 149-160).
40. Muradov, S. A. (2023). THE MAIN IDEAS OF THE FOUNDER OF THE GERMAN SCHOOL OF PHILOSOPHY. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 588-594.
41. Sanjar, M. (2020). The views of Fariduddin Attar on being. *International journal of applied research. IJAR*, 6(6), 34-36.
42. Sanjar, M. One of the Factors of Purity of the Heart is Futuwat. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 98-101.
43. Murodov, S. A. (2022). Relationship between the universe and man in the works of Fariduddin Attar. In *International conference: problems and scientific solutions* (Vol. 1, No. 6, pp. 35-41).
44. Shukrullayev, Y. A., & Bahritdinovna, S. R. (2023). GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINI TIKLASH HARAKATI. "IQTISODIY MO 'JIZA". *Innovative Development in Educational Activities*, 2(7), 577-587.
45. Shukrullayev, Y. A. (2022). FRANSIYA–O 'ZBEKISTON ALOQALARINING TARIXIY ILDIZLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(3), 110-113.
46. Шукруллаев, Ю. А. Армия Бухарского эмирата и военное дело (1756-1920 гг.). Автореферат кандидатской диссертации по истории.-Ташкент, 2006.-26 с.; К вопросу

- о дипломатических сношениях между Россией и Бухарой через Оренбург в конце XVIII-начале XIX веков. *Общественные науки в Узбекистане*.-1962, 7, 55-59.
47. Шукриллаев, Ю. А. (2006). Бухоро амирлигида кўшин ва ғарбий иш (1756-1920 йиллар). Тарих фанлари номзоди илмий дражасини олиш учун езилган диссертация. - Тошкент, 2006.
48. Шукуриллаев, Ю. (2023). ВОЕННЫЕ РЕФОРМЫ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ ПОД ПРОТЕКТОРАТОМ. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 2(16), 249-260.
49. Шукуриллаев, Ю. А. (2023). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚЎШИН ТАРКИБИГА ҚАБУЛ ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИ, АСКАРЛАРНИНГ ҚЎШИН ТАРКИБИДАН ҚОЧИШИ (ДЕЗЕРТИРСВО), САБАБИ ВА ОҚИБАТЛАРИ. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 513-524.
50. Шукуриллаев, Ю. (2022, December). СОЗДАНИЕ ВОЕННЫХ УСТАВНЫХ ГРУПП ЕВРОПЕЙСКОГО ТИПА В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 42-51).
51. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Перспективы использования технологии сотрудничества в процессе подготовки педагога профессионального образования. *Молодой ученый*, (12), 839-841.
52. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2016). Психологические основы педагогического проектирования. *Молодой ученый*, (12), 837-839.
53. Гаффоров, А. Х., & Алимова, М. М. (2015). Социально-психологические факторы формирования модели педагога в современном образовательном процессе. *Молодой ученый*, (2), 504-506.
54. Алимова, М. М. (2023). «РАСКРЕПОЩЕНИЕ» ЖЕНЩИН В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ (1920-1930 г. г). *Innovative Development in Educational Activities*, 2(8), 535-541.
55. 46.Алимова, М. М., & Гариев, А. (2023). ПРОТИВОДЕЙСТВИЕ КОРРУПЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 2(24), 261-270
56. Хайтматова, Н., & Алимова, М. (2023). Вопросы равенства, прав и свобод женщин в Узбекистане. *Научные работы одарённой молодёжи и медицина XXI века*, 1(1), 369-369.
57. Алимова, М. М. (2023). ИСТОРИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *SCHOLAR*, 1(28), 113-129

58. Алимова, М. М. (2023). РОЛЬ ГРАЖДАНСКИХ ИНСТИТУТОВ В ФОРМИРОВАНИИ НЕТЕРПИМОСТИ КОРРУПЦИИ У ГРАЖДАН УЗБЕКИСТАНА. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 253-264.
59. Алимова, М. М., & Абдусаттаров, С. Ш. (2020). ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА-ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ПРОЦЕСС В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА* (pp. 13-16
60. Вахидова, М. Т. (2022). ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ. *INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE*, 1(7), 82-90.
61. Вахидова, М. Т., & Мирзаев, У. Т. (2022, December). ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 4, pp. 52-62).
62. Vohidova, M. (2023). SOCIAL AND ETHICAL ASPECTS OF THE EXISTENCE OF TOLERANCE IN YOUNG PEOPLE. *Innovative Development in Educational Activities*, 2(6), 559-566.
63. Khalilovich, Z. E., & Orifovich, D. G. (2020). ANALYSIS OF THE TEACHINGS OF MAHDUMI AZAM AND CLASSIFICATION OF PAMPHLETS. *International Engineering Journal For Research & Development*, 5(4), 4-4.
64. Zoirov, E. H. (2021). Questions of ontology of nature in the teachings of mahdumi azam. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 91-94.
65. Зоиров, Э. Х. (2022). Ориф Ревгарий-второй пир Бухоро-и-шариф. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований", (50), 48-51.
66. Зоиров, Э. Х. (2022, December). ДУХОВНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 1, No. 4, pp. 121-131).
67. Наврўзова, Г., & Зоиров, Э. (2018). Бухорои Шарифнинг етти пири. Тошкент: Мухаррир, 80.
68. ЗОИРОВ, Э. Х. НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХДУМИ АЪЗАМА. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований, 20, 29-32.

69. Зоиров, Э. Х. (2021). Вопросы онтологии природы в учении Махдуми Азама. Академия: международный междисциплинарный исследовательский журнал, 11(5), 91.
70. Наврўзова, Г., Зоиров, Э. Х., & Юнусова, Г. (2006). Тасаввуфда инсон ва унинг камолоти масаласи. Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 56.
71. Зоиров, Э. (2015). Махдуми Аъзамнинг фалсафий ва ижтимоий сиёсий қарашлари. Т. Turon zamin ziyo.
72. ЗОИРОВ, Э. Х. История, археология, религиоведение. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 48.
73. Наврўзова, Г. Н. (2007). Нақшбандия-камолот йўли. Тошкент: “Фан”, 189.
74. Наврўзова, Г. Н. (2021). Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ҳаёти ва маънавий мероси. Т.: Фан, 244.
75. Наврўзова, Г. Н. (2009). Баҳоуддин Нақшбанд. Бухоро: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 174.
76. Navruzova, G. (2020). Bahaiddin Naqshband-the seventh pir of Bukharai Sharif (Noble Bukhara). Islamic thinking. Scientific-educational, religious-cultural, information publication magazine. Tashkent. Special issue, 5-8.
77. Shodiev, J. J. (2020). Interpretation of moral facts in the opinions of Umar Khayyam. International engineering journal for research & development.-India, 5(3), 143-148.
78. Шодиев, Ж. Ж. Interpretation of the image of may in the ruba of Umar Khayyam. Monografia pokonferencyjna science, research, development, 33, 2020-30.
79. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём фалсафий қарашларида инсон тақдири ва эркин ирода масаласи. Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси, 2, 197-204.
80. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг асосий асарлари ва рубойларининг тузилиши, мазмуни ва таҳлили. Илм Сарчашмалари.-Урганч, 10, 44-47.
81. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайём рубойларининг талқин ва тавсифи. Наманган давлат университети Илмий ахборотномаси, 9, 206-210.
82. Шодиев, Ж. Ж. (2020). Умар Хайёмнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа ва ҳуқуқ. –Тошкент, 3, 107-110.
83. Shodiev, J. (2021). The problem of knowledge in the philosophical views of Umar Khayyam. Imam al-Bukhari IBS Journal, 2.
84. Шодиев, Ж. (2022). Илк уйғониш даврида–комил инсонни шакллантириш ватарбиялашда тасаввуф таълимотининг ўрни. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi–2022-yil_4-сон, 229.

85. Шодиев, Ж. Ж. Мамлакатимизда инсон кадрини юксалтиришнинг ижтимоий-фалсафий масалалари. Қарду хабарлари. Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).
86. Shodiev, J. J. (2020). INTERPRETATION AND DESCRIPTION OF UMAR KHAYYAM RUBAYA. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(9), 206-211.
87. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 1160-1164.
88. Bafoev, F. M. (2020). О НЕКОТОРЫХ КОНТУРАХ НОВОГО МИРОВОГО ПОРЯДКА: ЭВОЛЮЦИЯ, ПРОГНОЗЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ. Theoretical & Applied Science, (12), 388-390.
89. Murtazoevich, B. F. (2019). Sustainable development goals and synergies of world politics. European science review, 1(1-2), 59-61.
90. БАФОВЕВ, Ф. М. (2022). К вопросу о динамике современных международных отношений. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Учредители: ООО" Агентство перспективных научных исследований", (20), 35-37.
91. Бафоев, Ф. М. (2022, November). Статистические данные как индикатор эффективной реализации целей устойчивого развития (ЦУР). In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 42-50).
92. Бафоев, Ф. (2012). К вопросу об эволюционном принципе строительства нового общества в независимом Узбекистане. Fuqarolik jamiyati. Гражданское общество, 9(1), 54-55.
93. Feruz, B. (2015). Mid-term stimuli, basic principles, and readjustments: America in Central Asia. Central Asia and the Caucasus, 16(2), 26-35.
94. БАФОВЕВ, Ф. М. К вопросу корректировки определения понятия «мировая политика» в контексте синергетики. Актуальные исследования, 31.
95. Бафоев, Ф. М. (2021). Современные тенденции мировой политики в контексте Коммюнике саммита G7 в Карбис Бэй (2021). Актуальные исследования, (47 (74)), 47-49.
96. Бафоев, Ф. (2025). ГЕОПОЛИТИКА И СИНЕРГЕТИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА. Modern Science and Research, 4(3), 1499-1503.
97. BAFOEV, F. (2019). Liberal Islam In The Contemporary World: New Landmarks Of Trump's Administration. Central Asia & the Caucasus (14046091), 20(2).

98. БАФОЕВ, Ф. М. Энергетическая дипломатия нового Узбекистана: о новых подходах в условиях меняющихся геополитических реалий. АКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 66.